

DOIRA CHOLG‘USI TARIXIGA NAZAR

Mamatqulov Abdulxamid

Guliston davlat universiteti. San’atshunoslik fakulteti

Mamatqulov Oybek

Guliston davlat universiteti. San’atshunoslik fakulteti

Mamatqulova Mahfuza

Guliston davlat universiteti. San’atshunoslik fakulteti

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada doira cholg‘usining barcha cholg‘ular ichida uzoq tarixga egaligi va tarixiy omillari ko‘rsatilgan.*

***Kalit so‘zlar:** “chirmanda”, “childirma”, “dol”, “daf”, “daff”, “def”, “doira”, “chaval”, “dabi”, “nog‘ora”, “qayroq”, “safoil”, “Reznog‘ora”, “dul”.*

O‘zbek musiqa madaniyati qadimiy va rang-barang, ayni paytda yangi zamon an’analarini o‘zida mujassam etgan holda rivoj topmoqda. Ustozlardan bizgacha saqlanib kelgan xalq musiqasi, mumtoz musiqa merosi, cholg‘u ijrochiligi, ijro uslublari keng qamrovda rivojlanmoqda, yoshlar tomonidan o‘zlashtirish, targ‘ibot qilish amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston istiqloлга erishishi munosabati bilan azaliy qadriyatlarimizni tiklash, o‘z tariximizni, milliy urf-odat va an’analarimizni, ma’naviy va badiiy merosimizni atroflicha o‘rganish, undan bahramand bo‘lish imkoniyati yaratildi.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoev 2 fevral 2022-yili “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi qarorida 2022/2023 o‘quv yilidan boshlab ta’lim muassasalarida o‘quvchi va talabalarning

musiqiy bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo'lgan muxabbatni shakllantirish, yosh iste'dodlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilishi ko'zlangan.

Cholg'u ijrochiligida doira san'ati o'ziga xos yetakchi o'rin tutadi. Bu cholg'u barcha cholg'ular ichida uzoq tarixga egaligi va ijrochilik san'ati bilan ajralib turadi. Kishilik jamiyatining ibtidoiy davrlaridan boshlab qadimgi odam qadamlarining bir maromda yerga tashlanishi, ov yoki boshqa jamoa tadbirlaridagi takroriy harakatlar, qo'llarini-qo'llariga, badaniga urishdan paydo bo'luvchi sadolar, turli mehnat qurollari, buyumlar yoki toshlarning bir-biriga tegishidan kelib chiqadigan ritmik tovushlar — urma cholg'ularning vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Shuningdek, ritmusul ibtidoiy inson hayotining markaziy unsuri bo'lib, u jamoa faoliyatini birlashtiruvchi, uni borliq - tabiat va koinot bilan uyg'unlashtiruvchi yagona vosita bo'lgan. Eramizdan avvalgi ikki minginchi yillikka oid Samaylitosh arxeologik qazilmalaridan topilgan tarixiy obidalarda doirasimon cholg'ularda ijro etayotgan sozandalar tasvirlangan. Bu esa doiraning qadim zamonlardayoq ijrochilik amaliyotida mavjud bo'lgan urma cholg'u ekanligini tasdiqlaydi. Markaziy Osiyo hududlarida olib borilgan qazilmalar natijasida olingan ma'lumotlarga qaraganda, islom davridan oldingi zamonlarda doiraga asosan ayollar jo'r bo'lgan. Ularning doira usullariga mos qo'shiq aytishi va raqsga tushishi o'sha davrlarda shakllanib, asrlar osha rivojlanib kelgan. Doyra, qayroq, zang va safoyillar oymoma marosimlarida koshchinlar tomonidan keng qo'llanilgan. Niso peshtoqlarida tasvirlanishicha, doira diniy marosim raqslariga jo'r bo'luvchi cholg'u sanalib, ayrim hollarda raqsga tushuvchilarning o'zlari, ba'zan esa maxsus doirachilar tomonidan ijro etilgan. Buyuk sarkarda Amir Temur, musiqa san'atining muhim estetik ahamiyatini ma'naviy omil sifatida harbiy musiqa turlarini qo'shinlarning jangovarlik ruhiyatini oliy darajada saqlab turuvchi kuch deb bilgan va uning rivojiga katta e'tibor bergan. U tarixda birinchi bo'lib, askarlarni jangovar bayroqlar va musiqa cholg'u asboblari bilan taqdirlash odatini harbiy udumga kiritadi: "Amr qildimki, -

deb yozadi “Tuzuklar”ida, — qaysi bir amir biron mamlakatni fath etsa, yo g‘anim lashkarini yengsa, uni uch narsa bilan mumtoz qilsinlar – faxrli xitob, tug‘ va nog‘ora berib, uni bahodir deb atasinlar”.

Markaziy Osiyoda yaxshi tanish bo‘lgan nog‘ora turlari ko‘s, tabira, al-tabra, bir tomonli nog‘ora, chindoul, doul-paz, katta nog‘ora kabilardan foydalanilgan. Zarbli cholg‘ularning asl ma‘nosiga qarab ko‘radigan bo‘lsak, zarb arabcha – urmoq yoki urish degan ma‘nolarni bildiradi va mazkur cholg‘ularda asosan zarb bilan urish, barmoq bilan chertish, silkitish va boshqa harakatlar orqali tovush hosil qilinadi. O‘zbek xalq cholg‘ulari orasida urib chalinadigan asboblarning guruhi kuyning o‘ziga xos ritm qatorini tashkil etib, alohida o‘rin egallaydi. Juda ko‘p hollarda xalq kuylari urib chalinadigan asboblarning ritmlari asosida ijro etiladi. Bizgacha yetib kelgan ma‘lumotlarga ko‘ra jo‘rnavor zarbli soz sifatida ommalashgan doira xam o‘zining rivojlanib kelayotgan milliy oxanglarga boy zarb va usullari bilan xalq orasida shuxrat qozongan. Bu cholg‘u asbobi o‘zbek va tojiklarda “doira” “chirmanda” “childirma” “dol” armanlarda “ daf” Eron va Misrliklarda “daff”, Ozarbayjonlarda “def” “doira” “chaval” ayrim sharq mamlakatlarida “dabi” va boshqa nomlar bilan keng tarqalganligi ma‘lum. U aniq bir baland tovushga ega bo‘lmasa ham, xilma-xil ovoz tembri va dinamik imkoniyatlarga egadir. Shuningdek, doira “nog‘ora”, “qayroq”, “safoil”, “Reznog‘ora”, “dul” kabi urib chalinadigan cholg‘u asboblari turkumiga mansubdir. Umuman doira turlari bir-biridan katta-kichikligi, tarkibiy qismlarining tuzilishi ijrochilik uslublari bilan farq qiladi. Bularga Xorazm, Buxoro, Samarqand, Surxondaryo-Qashqadaryo, Farg‘ona, Toshkent doira ijrochilik uslublarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Abu Nasr Forobiy (X asr) “Kitob al-musiqa al-kabir” (Musiqa haqida kitob) asarida doira va doira asari bo‘lgan usullar xaqida g‘oyat qimmatli ma‘lumotlar berib o‘tgan. Safiuddin Urmaviy (XIII asr) “Kitob al-advor” (Musiqa doiralar kitobi) asarida doira usullarining o‘n ikki maqom musiqa ijrochiligida muhim o‘rin tutishi to‘g‘risida fikr yuritgan. Abdurahmon Jomiy (XV asr) “Risolai musiqiy” (Musiqa risolasi) asarida doira usullari turlari haqida

yoʻzadi. Darvesh Ali Changiy-Buxoriy (XVII asr) “Risolai musiqiy” (Musiqqa risolasi) asarida doira usullari va unig mashhur ijrochilari toʻgʻrisida qimmatli maʼlumotlarni bergan. Bu noyob manbalar doira ijrochilik tarixini oʻrganish uchun muhim hisoblanadi. V.Belyaev, T.Vizgo, A.Petrosyans, F.Karomatov, I.Rajabov kabi olimlarimizning tadqiqotlarida doira ijrochiligining nazaryasiga doir muayyan fikr muloxazalar bildirib oʻtilgan. A.Petrosyans (XX asr) “Doira ijro maktabi” asarida toʻrt chiziqli doira usullari notasini asoslab bergan. Markaziy Osiyoda yashab ijod etgan olimlarimizning musiqqa oid risolalaridagi shuningdek, XX asrdan boshlab olib borilgan ilmiy tadqiqotlardan doira ijrochilik tarixi qadim ildizlarga ega ekanligini bilib olishimiz mumkin. Shuning uchun oʻzbek xalqi qadimdan doira asbobini ardoqlab kelgan. Oʻtmishda bu asbob sadolari ostida xalqni maydonlarga, toʻy-tomoshalarga, musobaqa-kurashlarga chaqirganlar. Doira ijrochilik tarixini kuzatish shuni koʻrsatadiki, har bir davrda doira ijrochilik sanʼatining fidoyilari boʻlgan. Ular bu borada ilmiy, nazariy, amaliy va ijtimoiy jihatdan munosib xissa qoʻshganlar. Respublikamizda doira ritmik usullarini dunyoga mashhur qilishda oʻz hissasini qoʻshgan Usta Olim Komilovning (1875-1953), boy merosi avlodlar uchun katta maktab vazifasini oʻtab kelmoqda. Mashhur ustaning anʼanalarini davom ettirganlar: Toʻychi Inogʻomov (1914-1986), Gʻofur Azimov (1917-1981), Dadaxoʻja Sottixoʻjaev (1921-1991), Qaxramon Dadaev (1936-2013), Odil Kamolxoʻjaev (1944-2015) kabi ustozlardir. Zamondoshlarimiz Talʼat Sayfutdinov, Rustam Ubaydullaev, Komiljon Xakimov, aka-uka Dilmurod, Elmurod, Xolmurod Islomovlar, Husan Nosirov, Xasan Azimov, Ilhom Ikromov kabilarning doira ijrosi rivojida mehnatlarini eʼtirof etish lozim. Oʻnlab doirachilar mustaqil Oʻzbekistonning barcha viloyat va tumanlarida, butun Oʻrta Osiyoda doirachilik sanʼatini rivojlantirish hamda bu noyob soz turini dunyoga targʻib va tashviq qilish ishida munosib hissalarini qoʻshib kelmoqdalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Mirziyoev.Sh. “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi qaror. 2 fevral, 2022 yil.
2. Odilov.A “O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi ” O‘qituvchi,1995 yil
3. Rahmatov. N “Doira”- o‘quv qo‘llanma Toshkent , 2016 yil